



PHILOSOPHICAL ASPECTS OF DEVELOPING YOUTH ECONOMIC ACTIVITY BASED ON HEALTHY MORAL AND ECONOMIC COMPETITION

Baxtiyor Tolipov

Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor

Independent Researcher at Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: youth, economic activity, moral values, fair competition, philosophy, entrepreneurship, innovation.

Received: 10.11.25

Accepted: 11.11.25

Published: 12.11.25

Abstract: This article examines the philosophical aspects of developing youth economic activity based on healthy moral and economic competition. It analyzes the role of ethical values such as diligence, honesty, and justice in shaping economic behavior and thinking. The study also discusses the interpretation of competition not merely as personal gain but as a means of social progress. Special attention is paid to the importance of moral motivation, innovative thinking, and entrepreneurial culture in encouraging youth participation in economic life.

YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINI SOG‘LOM AXLOQIY-IQTISODIY RAQOBAT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY JIHATLARI

Baxtiyor Tolipov

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Farg‘ona, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: yoshlar, iqtisodiy faollik, axloqiy qadriyatlar, sog‘lom raqobat, falsafa, tadbirkorlik, innovatsion fikrlash.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar iqtisodiy faolligini oshirish jarayonida sog‘lom axloqiy-iqtisodiy raqobatning falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Unda iqtisodiy tafakkurning shakllanishi, mehnatsevarlik, halollik, adolat kabi axloqiy qadriyatlarning iqtisodiy faoliyatdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, raqobatni shaxsiy manfaat emas, balki ijtimoiy taraqqiyot vositasi sifatida talqin etishning nazariy jihatlarini ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotda yoshlarni iqtisodiy faol hayotga jalb etishda ma'naviy motivatsiya, innovatsion fikrlash va tadbirkorlik madaniyatining o'zini alohida tahlil qilinadi.

ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ НА ОСНОВЕ ЗДОРОВОЙ ПРАВСТВЕННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КОНКУРЕНЦИИ

Бахтиёр Талипов

Кандидат философских наук, доцент

Самостоятельный исследователь Ферганского государственного университета Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: молодежь, экономическая активность, моральные ценности, здоровая конкуренция, философия, предпринимательство, инновации.

Аннотация: В данной статье рассматриваются философские аспекты развития экономической активности молодежи на основе здоровой нравственно-экономической конкуренции. Анализируется роль таких моральных ценностей, как трудолюбие, честность и справедливость, в формировании экономического поведения и мышления. Также исследуется понимание конкуренции не как личной выгоды, а как средства общественного прогресса. Особое внимание уделено значению моральной мотивации, инновационного мышления и предпринимательской культуры в вовлечении молодежи в экономическую жизнь.

KIRISH

Yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy faolligi va boshqa masalalarga doir olib boriladigan har qanday ilmiy tadqiqotlarda "yoshlar iqtisodiy faolligi" tushunchasining mohiyatini ochib berish, mazkur ijtimoiy guruhning demografik holatini (shaharda, qishloqda yashovchi, ishchilar, o'quvchilar va h.k.) aniqlash, yoshlar yashab, faoliyat yuritayotgan ijtimoiy muhitning holatini hisobga olishni talab etadi. Mazkur holatni ilmiy bilish uchun uchta jihati bo'yicha yondashish talab qilinadi. Birinchi jihati, yoshlarga iqtisodiy faol fenomen sifatida umummetodologik darajada yondashish; ikkinchi jihati, yoshlarga sotsial mobillik darajasida yondashish, ya'ni ularni alohida ijtimoiy-demografik guruh, deb hisoblash, xulqi, axloqi, yashash tarzining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, iqtisodiy faolligining mo'ljallarini o'rganish; uchinchi jihati, yoshlarning iqtisodiy faolligini empirik, ya'ni sotsiologik tadqiqotlarning dalillari va ko'rsatkichlariga asoslangan holda yondashish.

Yoshlar faolligi va bandligi nuqtai nazaridan yoshlar tuzilmasini ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga iqtisodiy faol, ikkinchi guruhga iqtisodiy nafaol yoshlarni kiritish mumkin. Iqtisodiy jihatdan faol yoshlar toifasiga real iqtisodiyot sohalarida, xususiy tadbirkorlikda va yashirin tadbirkorlikda band yoshlarni kiritish mumkin. Iqtisodiy jihatdan nafaol yoshlar oltita alohida guruhga bo'linadi: 1-guruhga o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan yoshlar; 2-guruhga muddatli harbiy xizmat o'tayotganlar; 3-guruhga bola tarbiyasi bilan shug'ullanayotganlar; 4-guruhga uy mehnati, shaxsiy xo'jaligi bilan bandlar; 5-guruhga ishlamaslik imkoniyatiga ega yoshlar; 6-guruhga marginal guruhlar (ish topish umidini yo'qotganlar, qamalganlar, uysizlar). Hozirgikunda nafaol yoshlar uyushmagan yoshlar tushunchasi bilan atalmoqda. Chunki yoshlarning iqtisodiy faollashishi, funksional o'zgarayotgan jamiyatning turli sohalari innovatsion va transformatsion namoyon bo'layotgani davr talabidir.

MATERIALLAR VA METODLAR

Fuqarolik jamiyatining xususiyatiga ko'ra jamiyatda bozor iqtisodiyoti qoidalarini amal qilishi, xususiy mulkdorlar sinfi shakllangan bo'lishi, innovatsiyali iqtisodiyot rivojlangan, yaratuvchanlikka asoslanadigan xo'jalik turlari shakllanib borayotgan bo'lishi kerak. M.Sharifxo'jaevning fikricha: "Fuqarolik jamiyatining bosh belgisi bo'lib iqtisodiyot hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining iqtisodiy belgisi xususiy mulkchilikka asoslanadi. Xususiy mulk faqat va faqat erkin, ochiq, botinam rivojlanishga qodir, siyosiy lashmagan, har qanday mafkuradan, ya'ni mafkuraviy monopolizmdan holi jamiyatdagina shakllanadi, mavjud bo'ladi... Fuqarolik jamiyati mustaqil ishlab chiqaruvchi, mustaqil erkin xaridor, mustaqil ozod fuqaro jamiyatidir"[1].

Yoshlarning rivojlanib boruvchi iqtisodiy ongining immanent belgilari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: "...iqtisodiy borliqning inson, jamiyat, taraqqiyot bilan bog'liq fundamental qonunlarini bilishi; ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni nazariy modellashtirish sirlarini anglashi; insondagi ijtimoiy-iqtisodiy faollikdan foydalanish va uni jamiyat manfaatlariga yo'naltirish mexanizmlarini bilishi"[2]. Yoshlar iqtisodiy ongini faollashtiruvchi immanent belgilaridan biri bu boylik yaratish, orttirish, foyda ko'rishdir. Shu immanent belgilar axloqiy-hissiy qo'zg'atuvchi, psixologik ta'sirga ega bo'lgan omillar bilan uyg'unlashib, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, Vatan ravnaqi, millat ravnaqi, xalq farovonligiga xizmat qiluvchi iqtisodiy faollik yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bizning fikrimizcha, bunda faol yaratuvchilikka bo'lgan intilish amaliy faoliyat doirasidagi imkoniyatlarning cheklanganligi bilan to'qnashadi. "Yoshlar xarakteridagi qarama-qarshi xususiyat va tavsiflarning (konformizm va negativlik, e'tirof etilgan umumiy me'yorlarni qabul qilish va rad etish, keng mulqotga yoki butunlay yolgizlikka intilish) kelib chiqishi ham ushbu jarayon bilan bog'liq"[3].

MUHOKAMA VA NATIJA

Yoshlar iqtisodiy faolligini oshirishning statik qonunlaridan biri bu ijtimoiy-axloqiy makondir. Jamiyatning ijtimoiy mezon va modellari, me'yor va qadriyatlari o'zgarishi bilan shaxsning sub'ektiv xususiyatlari ham o'zgaradi. Yoshlarning iqtisodiy hayotga faol munosabati hamda yondashuvini individuallik va ijtimoiylik tushunchalari nuqtai nazaridan tahlil qilmasdan turib, uning o'ziga xosligini aks ettiruvchi xususiyatlari, xislati, qobiliyati, malakasi, ijtimoiy qarashlari, axloqiy fazilatlarini o'rganib bo'lmaydi. Abu Nasr Forobiyning hikmatlariga ko'ra: "Har bir kishi kasb-korni mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq-odob, fazilatlarga ega bo'lmog'i kerak", "daraxtning yetukligi uning mevasi bilan o'lchanganligidek, insonning komil insonga xos fazilatlar sohibi ekanligi uning axloq-odobida mujassamlanadi"[4].

Mustaqillik, yangicha jamiyat talablari va iqtisodiy islohotlar eskalatsiyasi ta'sirida yoshlar orasida individual iqtisodiy faollik keng tarqalib ulgurgan. Bu, bir tomondan, ijobiy ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yoshlarning iqtisodiy faollashuvining bu ikki jihati jamiyatning funksional o'zgarishi davrida doim paydo bo'ladi. Salbiy ma'noda, bunday faollashuv individual rivojlanib umumdavlat, umumjamiyat iqtisodiy o'sishi va rivojlanishi bilan bog'liq masalalarni hal qilishdan yiroqlashtirsa, ijobiy ma'noda, bunday faoliyat yoshlarda ishbilarmonlik va tadbirkorlik madaniyatining rivojlanishiga olib keladi. Yoshlarning iqtisodiyot sohasidagi faolligi ularning bozor iqtisodiyotini to'liq moslashuvi bilan bog'liqdir. Bu boradagi natija yoshlarning bandligi masalasi bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyoti talablari va umuman, bozor talablariga yoshlar tezroq kirib bormoqdalar. "Bu borada bir tomondan, yoshlar ongiga zamonaviy bozor munosabatlari haqidagi ob'ektiv bilimlarni singdirish, ikkinchi tomondan, bozor tuzilishiga davlat tomonidan muayyan ta'sir ko'rsatilishi talab qilinadi"[5]. Bozor munosabatlari yoshlarning faolligini yanada oshirishga xizmat qilishi va unda biror mayda narsani sotish evaziga pul topish singari iste'molchilik kayfiyatini shakllantirmay, balki jamiyatni yangi modernizatsiyalashgan ishlab chiqarishiga birlashib, zamonaviy bozor infrastrukturasini yaratishga sharoitlar hozirlashi kerak.

Hozirgi davrda yoshlar iqtisodiy faolligining axloqiy immanent xususiyatlarini o'rganmasdan turib natijaga erishish qiyin. Axloqiy qadriyatlar yoshlarning motivatsiyasining aks etishi, iqtisodiy faoliyatda boshqaruvchanlik xarakteridagi kuchli vositadir. Samarali axloqiy me'yorlar, mezonlar va qadriyatlarning birdan bir vazifasi mavjud ijtimoiy institutlarning barqarorligini ta'minlash, yangi paydo bo'luvchi axloqiy, iqtisodiy qadriyatlarni moslashtirishdir. Iqtisodiy sohada erkinlik berilishi, tadbirkorlik, ishbilarmonlik davlat himoyasida bo'lishi, uning huquqiy-me'yoriy bazasi, o'z navbatida, axloqiy, madaniy qadriyatlarni o'zgarishiga kuchli impuls berishi tabiiydir. Shu sababli jamiyatning peshqadam kuchi bo'lgan yoshlar faol iqtisodiy inson sifatida iqtisodiy institutlarni rivojiga katta hissa qo'shmoqdalar. Fikrning o'zgarishi, qarashlarni transformatsiyaga uchrash holati avvalo

yoshlarda namoyon bo‘lmoqda. Bu borada “o‘ychining o‘yi bitguncha tavakkalchining ishi bitadi”,- degan tamoyil yoshlar ichida faollashib ulgurgan. Jamiyatning qadriyatli qatlami (asosan axloqiy qadriyatlari) va shunga mos ravishda yoshlarning axloqiy qadriyati tizimida “sog‘lom raqobat” axloq shakllanmoqda. Raqobat – o‘rnini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan axloqiy qadriyatlarni boshqaruvchi, rivojlantiruvchi rag‘batdir. Raqobatning ontologik va gnoseologik tabiati to‘g‘risida ilmiy izlanishlar olib borgan Sh.Negmatovanning fikricha, “raqobat to‘g‘risidagi qarashlarni mantiqiy umumlashtirilsa, u holda mazkur tushuncha uch xil talqin qilinganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Birinchisi, raqobatni muomala nuqtai nazardan talqin qilish bo‘lib, unga ko‘ra raqobat bu xaridorlarning o‘z ehtiyoj va manfaatlarini qondirish uchun ko‘proq pul topish uchun kurashishdir. Ikkinchisi, strukturaviy jihatdan talqin qilish bo‘lib, unga ko‘ra raqobat –bozorda yaratilgan shart-sharoitlar tufayli sotuvchi va xaridorning unda erkin harakat qilish darajasidir. Uchinchisi, raqobatni funksional jihatdan talqin qilish bo‘lib, unga ko‘ra raqobat – eski bilan yangi, innovatsiyalar o‘rtasida bellashuv bo‘lib, yashiringan narsalarning ko‘zga tashlanib aniq bo‘lib qolishdir”[6]. Tadqiqotchi o‘z fikrini rivojlantirib aytadiki, raqobatning ontologik va gnoseologik tabiatini aniqlash uchun tabiatdagi, inson borlig‘idagi, ma‘naviy borliqdagi, sotsial borliqdagi raqobatni farqlash kerakligini ta’kidlaydi.

Hozirgi davrda O‘zbekistonning qadriyatli qatlami o‘z ichida turli davrlarda shakllangan va hozirgi kunda ham saqlanib qolayotgan uch xil qadriyatni kuzatish mumkin. Milliy ana’anaviy axloqiy qadriyatlar, sobiq sho‘rolar davrida shakllangan qadriyatlar va demokratik tamoyillar, liberallashtirish natijasida paydo bo‘lgan qadriyatlar. Shu mavjud qadriyatlar iqtisodiy faollashishga turli darajada ta’sir o‘tkazadi. Birinchi turdagi qadriyatlar oddiy inson, uyushmagan yoshlar, aholi o‘rtasida keng tarqalgan bo‘lib, “tishini bergan rizqini beradi” tamoyiliga amal qiladi. Ikkinchi turdagi qadriyatlar bilan mustahkamlangan kuchli sterotiplar mavjudki, ularning o‘zgarishi, zamonga qarab o‘zgarishi mutloqo qiyin kechadigan jarayondir. Bundaylar faollashgan qadriyatlarga, ayniqsa, yoshlarning iqtisodiy faolligiga to‘siq bo‘lish hollari kuzatiladi. Uchinchisi turdagi qadriyatlar mustaqillik natijasida yangi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy qadriyatlarni aks ettirib, ko‘proq foydali, samarali qadriyatlar bilan ish ko‘radigan yoshlar o‘rtasida keng tarqalgan. Yangi axloqiy qadriyatlar faollashishga yo‘l ochib, yangi impuls berishi bilan bir qatorda bir qator axloqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ya’ni, axloqning insonpavarlik, xalqparvarlik tamoyillari, halollik singari me’yorlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan odatlar shakllanishi mumkin. Ishbilarmonlik, tadbirkorlik individualizmning shakllanishiga yoki aksincha ta’siri mavjud bo‘lishi mumkinmi? Yoshlar iqtisodiy faolligida insonpavarlik, sabr-toqat, ishonch, birdamlik singari axloqiy tamoyillarga o‘rin bormi? Ushbu savollarga javob topish uchun Farg‘ona davlat universiteti “Iqtisodiyot” yo‘nalishining 3-kurs talabalaridan sotsiologik so‘rovnoma olindi. Ularga quyidagi savollar berildi: “Biznesda halollik foyda keltiradimi?”, “Axloq, xulq va

tadbirkorlik o'zaro aloqador tushunchalarmi? ". Birinchi savolga 33%, ikkinchi savolga 21% talabalar ijobiy "ha" deb javob berganlar.

XULOSA

Asrlar osha shakllanib kelgan axloqiy qadriyatlar tabiat, jamiyat va inson hayotida ijobiy o'zgarishlar, farovon hayotni taminlay olgan bo'lib, yangi qadriyatlar transformatsiyasida ularning asl ma'nosini o'zgartirmasdan olib o'tish zarur. Chunki "bozor iqtisodiyoti va ma'muriy-buyruqbozlik tizimi bir-biriga zid, antipod hodisalardir. Bozor iqtisodiyoti faoliyatni erkin, bozor talablariga va xaridor ehtiyojlariga muvofiq olib borishni taqozo etadi. Erkin faoliyat ham, xaridor ehtiyoji ham bozor munosabatlarini yo'lga qo'yuvchi, rivojlantiruvchi qadriyatlardir. Mazkur ikki qadriyat yo'q joyda bozor munosabatlari ma'muriy – buyruqbozlik boshqarish usuliga aylanadi"[7].

Yoshlarning iqtisodiy faollashishi, o'z navbatida, yuqorida ta'kidlanganidek ijobiy va salbiy xususiyatlarni kasb etishi mumkin. Tadbirkorlik va ishbilarmonlik faoliyati amaldagi qonunlar bilan tartibga solingan va tadbirkorlik huquqlari davlat himoyasidadir. "... tadbirkorlik faoliyati shunchaki oddiy xo'jalik faoliyati emas, mulkiy foyda ko'rishni ko'zlaydigan tashabbuskorlik va tavakkalchilikka asoslangan faoliyatdir. Mulkiy foyda ko'rish maqsadi esa ko'p hollarda tadbirkorlik sub'ektining amaliy faoliyatida ifodalanadigan salbiy xulq-atvori shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Foyda ketidan quvish, kam xarj evaziga ko'proq foydaga erishish maqsadi, o'z navbatida, davlat tomonidan joriy etilgan qonunlarni chetlab o'tishga undaydi"[8]. Shuning uchun tadbirkorlikni, ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, sog'lom raqobat muhitini saqlab qolish singari huquqiy-me'yoriy qonunchilik bazasi shakllantirilib, "...so'nggi uch yilda mamlakatimizda xususiy mulk mavqeini oshirish hamda uni himoya qilish, ishbilarmonlik muhiti va biznes yuritish sharoitlarini yanada yaxshilashga qaratilgan o'n beshdan ortiq qonun, jumladan, "xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida", "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolati to'g'risida (yangi tahrir)", "Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida", "Raqobat to'g'risida", "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"[9] va boshqa qonunlar qabul qilingan bo'lib, bular iqtisodiy faollikning rivojlanishida axloqiy immanent belgi sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sharifxo'jayev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – T.: Sharq, 2003.-10-11-betlar.
2. Norqulov S. D. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy ongda transformatsiya jarayonlari. Monografiya. – T.: Navro'z, 2015.-93-bet.
3. Tulenova G.J. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma'naviy omilning roli (ijtimoiy – falsafiy tahlili): fal.fan.dok-ri. diss. –T., 2006.-79-bet.

4. Mashriqzamin hikmat bo'stoni. –T.: Sharq. 1997.- 4-bet
5. Qodirova Z.R va boshqalar. Yoshlar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. –T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2006.-175-bet.
6. Negmatova Sh. Raqobatning ontologik tabiati va gnoseologik xususiyatlari // Imom Buxoriy saboqlari jurnali. 2017, 1-son, 92-bet.
7. Ro'ziyeva R. Jamiyatning ma'naviy yangilanishi: milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi. –Toshkent: Falsafa va huquq inst.nashr., 2011.-108-bet.
8. Primov F. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini nazorat qilishni optimallashtirish istiqbollari. // Ijtimoiy fikr- inson huquqlari. № 3, 2016,-44-bet.
9. Nazarova Y. Mahalla: yoshlarni kasbga yo'naltirish sohasidagi faoliyat huquqiy asoslarining rivojlanishiga oid. // Fuqarolik jamiyati jurnali, 2016, №3 32-bet.